BUXORO VILOYATI QOROVULBOZOR TUMANI HOKIMINING QARORI

200900, Qorovulbozor tumani, Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 1-uy. Tel: (365) 364-14-09, e-mail: qbozorhokimiyat1@inbox.uz, qorovulbozor.t@exat.uz

2022 - yil 21 - oktabr 406-2-38-Q/22 Qorovulbozor tuman hokimligi

2023 yilda tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunining 38-39-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 11.12.2017 y., 09/17/965/0393-son) Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Qorovulbozor tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazining ish joylarining eng kam miqdorini band qilib qo'yish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori (kvotalangan ish o'rinlari) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni 20 nafardan ko'pni tashkil etadigan, korxona, muassasa va tashkilotlar uchun xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni 249 kishini tashkil etadigan 7 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorida, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga 32,9 foiz (82 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlari, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar 33,3 foiz (83 kishi);

«Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 12,0 foiz (30 kishi);

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya hamda Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 2,8 foiz (7 kishi);

nogironligi bo‘lgan shaxslar 0,8 foiz (2 kishi);

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar 1,6 foiz (4 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar 0,8 foiz (2 kishi);

odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0 foiz (0 kishi);

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari uchun, shu jumladan kichik yoshli bolalari bo‘lgan ishlamayotgan ayollar, kambag‘al oilaning ishsiz shaxslari uchun, og‘ir sharoitda yashovchi ayollar uchun, oliy ta’limni to‘lov shartnomasi asosida bitiruvchilar va mehnat muhojirlari uchun 15,6 foiz (39 kishi) miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019 y) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligi inobatga

olinsin.

5. Ushbu qarorning ikkinchi bandida ko‘rsatilgan shaxslarni ishga qabul qilishni asossiz rad etgan ish beruvchi va uning vakolatli shaxslari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

6. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (R.Mirzaev) qaror qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin va uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati (I.Karimov), “Qorovulbozor tongi” gazetasi tahririyati (B.Soliyev)ga mazkur qaror mazmun-mohiyatini ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish tavsiya etilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan so‘ng kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i D.Djumayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Ostonov**

Qorovulbozor tuman hokimining
2022 yil 21 oktabrdagi
406-2-38-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman
hokimining
_____ yil
"_____"
_____ - sonli qaroriga ilova

Korxona, tashkilot va muassasalarda kvotalangan ish o‘rinlari

T/R	Korxona, tashkilot va muassasalar nomi va tarmog‘i	Jami ishlovchilar soni	Band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlarining jami	Фонзи	Shundan									Korxona ,tashkilot,muassasasi joylashgan manzil
					o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab kasbga ega bo‘lgan yoshlar	“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun	Safrbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolla kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurbonlar uchun	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari uchun shu jumladan kichik yoshli bolalari bo‘lgan ishlamayotgan ayollar, kambag‘al oilaning ishsiz shaxslari uchun, og‘ir sharoitda yashovchi ayollar uchun, oliy ta'limni to‘lov shartnomasi asosida bitiruvchilar va mehnat muxojirlari uchun	
1	2	3	4		5	6		7	8	9	10	11	12	13
1	Buxoro neftni qayta ishlash zavodi	3220	63	2,0	15	20	10	1	0	1	0	0	16	Imom-buxoriy MFY
2	Buxorogazparmalash AJ	421	15	3,6	6	3	1	1	0		1	0	3	Cholquvar MFY
3	O'zneftgazquduqta'mirlash aktsiyadorlik jamiyati	1321	27	2,0	2	13	2	1	1	1	0	0	7	Cholquvar MFY
4	O'zparavtotrans aktsiyadorlik jamiyati	419	9	2,1	2	3	2	1	1	0	0	0	0	Cholquvar MFY
5	O'zpartamponaj aktsiyadorlik jamiyati	252	7	2,8	2	2	1	1	0	0	0	0	1	Cholquvar MFY
6	Qorovulbozor temir yo'l bekati	222	15	6,8	4	4	5	0	0	0	0	0	2	Imom-buxoriy MFY
7	Qorovulbozor tuman tibbiyot birlashmasi	549	29	5,3	9	7	7	1	0	1	0	0	4	Imom-buxoriy MFY
8	Jayron Ekologik markazi	33	2	6,1	1	1		0	0	0	0	0	0	Cholquvar MFY
9	Qorovulbozor sanoat va transport kasb-hunar maktabi	80	3	3,8	1	1	1	0	0	0	0	0	0	Tinchlik MFY
10	Neftchi davlat o'rmon xo'jaligi	65	3	4,6	1	0		1	0	0	0	0	1	Imom-buxoriy MFY
11	Qorovulbozor davlat o'rmon xo'jaligi	48	3	6,3	1	2		0	0	0	0	0	0	Tinchlik MFY
12	Qorokulchilik shirkat xo'jaligi	88	2	2,3	1	1	0	0	0	0	0	0	0	Boston MFY
13	Tuman davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazi	38	2	5,3	1	1		0	0	0	0	0	0	Tinchlik MFY
14	Qorovulbozor tuman hokimligi huzuridagi "Obodonlashtirish" boshqarmasi	203	10	4,9	3	3	1	0		1	1	0	1	Tinchlik MFY
15	Qorovulbozor tuman yo'l xo'jalik pudrat ta'mirlash foydalanish korxonasi	72	5	6,9	2	2	0	0	0	0	0	0	1	Cholquvar MFY
16	Qorovulbozor tuman veterinariya bo'limi	23	1	4,3	1	0	0	0	0	0	0	0	0	Cholquvar MFY
17	Qorovulbozor tuman Bolalar o'smirlar sport maktabi	56	3	5,4	2	1	0	0	0	0	0	0	0	Cholquvar MFY
18	Qorovulbozor tuman xalq ta'limi bo'limi	38	2	5,3	1	1	0	0	0	0	0	0	0	Cholquvar MFY

19	Qorovulbozor tuman irrigatsya bo'limi suv xo'jaligi	36	2	5,6	1	1	0	0	0	0	0	0	0	Cholquvar MFY
20	Barkamol avlod bolalar markazi	43	3	7,0	2	1	0	0	0	0	0	0	0	Tinchlik MFY
21	18-son Bolalar musiqa va san'at maktabi	55	3	5,5	2	1	0	0	0	0	0	0	0	Cholquvar MFY
22	1-umumiy o'rta ta'lim maktabi	117	4	3,4	1	2	0	0	0	0	0	0	1	Tinchlik MFY
23	2-umumiy o'rta ta'lim maktabi	93	3	3,2	0	2	0	0	0	0	0	0	1	Tinchlik MFY
24	3-umumiy o'rta ta'lim maktabi	80	3	3,8	1	2	0	0	0	0	0	0	0	Navbaxor MFY
25	4-umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	2	3,1	1	1	0	0	0	0	0	0	0	Bozachi MFY
26	5-umumiy o'rta ta'lim maktabi	57	3	5,3	1	2	0	0	0	0	0	0	0	Jarqoq MFY
27	6-umumiy o'rta ta'lim maktabi	54	2	3,7	1	1	0	0	0	0	0	0	0	Boston MFY
28	8-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabi	75	3	4,0	1	2	0	0	0	0	0	0	0	Imom-buxoriy MFY
29	Bulbulcha maktabgacha ta'lim muassasasi	40	2	5,0	2	0	0	0	0	0	0	0	0	Tinchlik MFY
30	Paxtaoy maktabgacha ta'lim muassasasi	36	2	5,6	1	1	0	0	0	0	0	0	0	Bozachi MFY
31	Boychechak maktabgacha ta'lim muassasasi	41	2	4,9	1	1	0	0	0	0	0	0	0	Cholquvar MFY
32	Zumrat maktabgacha ta'lim muassasasi	74	2	2,7	2	0	0	0	0	0	0	0	0	Tinchlik MFY
33	Qaldirg'och maktabgacha ta'lim muassasasi	31	2	6,5	2	0	0	0	0	0	0	0	0	Navbaxor MFY
34	Moxigul maktabgacha ta'lim muassasasi	32	2	6,3	2	0	0	0	0	0	0	0	0	Jarqoq MFY
35	Lola maktabgacha ta'lim muassasasi	34	2	5,9	1	1	0	0	0	0	0	0	0	Cholquvar MFY
36	Zilola maktabgacha ta'lim muassasasi	30	2	6,7	2	0	0	0	0	0	0	0	0	Boston MFY
37	Quyoshcha maktabgacha ta'lim muassasasi	28	2	7,1	2	0	0	0	0	0	0	0	0	Cholquvar MFY
38	Qorovulbozor tuman Madaniyat bo'limi	34	2	5,9	2	0	0	0	0	0	0	0	0	Cholquvar MFY
	JAMI	**8203**	**249**	**3,0**	**83**	**83**	**30**	**7**	**2**	**4**	**2**	**0**	**38**	